

MAHSULOT SOTISH TO'G'RSIDA
28451 - SONLI SHARTNOMA

2022 yil 20 may

Farg'ona tumani

“Chimyon Baraka Savdo Servis” MCHJ (bundan buyon matnda “Sotuvchi” deb nomlanadi) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari A.Ahmedov bir tomondan va Marg'ilon shaxar Marg'ilon shaxar (bundan buyon matnda “Sotib oluvchi” deb nomlanadi) nomidan nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari A.3u260ngalab ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar

I.Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha “Sotuvchi” shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan mahsulotni belgilangan muddatlarda “Sotib oluvchi” ga sotishni, “Sotib oluvchi” mahsulotni qabul qilishni va xaqini o'z vaqtida to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. “Sotuvchi” jadvalda ko'rsatilgan quyidagi mahsulotlarni, “Sotib oluvchi” ga sotishni o'z zimmasiga oladi.

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Mahsulot qiymati	shundan	
						QQS	Summa
1	Guruch	kg	400	8800	3 520 000,00	15	459 130,43
2	O'simlik yog'i	litr	80	18000	1 440 000,00	15	187 826,09
3	Kartoshka	kg	1200	4900	5 880 000,00	x	
4	Sabzi	kg	400	3900	1 560 000,00	15	203 478,26
5	Tuxum	dona	1200	1000	1 200 000,00	15	156 521,74
6	Shakar	kg	80	10800	864 000,00	15	112 695,65
7	Choy 0.4	pachka	40	17400	696 000,00	15	90 782,61
Jami:				x	15 160 000	x	1 210 434,78

1.3.Shartnomaning umumiy summasi O'n besh million bir yuz oltmish ming so'm

2. TARAFLARNI XUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI:

2.1. “Sotuvchi” ning xuquqlari:

a) Ushbu shartnomani 5.2 bandida ko'rsatilgan muddatlarda xisob kitoblar amalga oshirilishini “Sotib oluvchi” dan talab qilish

b) “Sotib oluvchi” shartnoma shartlarini buzgan holda mahsulotni qabul qilmasa yoki qabul qilishdan asossiz ravishda bosh tortsa, “Sotuvchi” shartnomani bajarishdan bosh tortish va zararni qoplashni talab qilishga;

v) “Sotib oluvchi” tomonidan maxsulot uchun xisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda yetkazilgan zararni qoplashni undan talab qilishga xaqlidir;

g) “Sotib oluvchi” shartnomani 5.2.. bandida belgilangan majburiyatni bajarmasa, “Sotuvchi” maxsulotni o'z ixtiyoriga ko'ra sotish va ushbu sotishdan ko'rilgan zararni “Sotib oluvchi” dan talab qilishga haqlidir;

2.2. “Sotuvchi”ning majburiyatlari:

a) Shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni “Sotib oluvchi” tomonidan berilgan buyurtmada ko'rsatilgan miqdor va muddatlarda ombordan berish;(sotish). b)

sotiilayotgan mahsulotni sifati va navi standartlar, texnik shartnomaga mos kelishini ta'minlash;

v) Mahsulotga to'lov yoki tovar-transport xujjatlarini mahsulot qabul qilingan kuni rasmiylashtirib berish;

g) “Sotuvchi” mahsulotni yetkazib berolmay qolgan qismini ushbu xolat aniqlangandan keyin 10 kun ichida yetkazib berish lozim;

d) Agar “Sotuvchi” shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni uzrli sabablarga ko'ra bajara olmasa, 2022 yil “ 10” maygacha “Sotib oluvchi”ga sabablarini tasdiqlovchi xujjatlarni taqdim etish;

e) Mahsulot sotish bo'yicha shartnomaviy rejalar bajarilmagan xolatlarda, “Sotib oluvchi”ga to'langan mablag'lar bo'yicha qarzdorlikni qoplash;

2.3. “Sotib oluvchi”ning huquqlari:

Mahsulotni sifati va navi standartlar, texnik shartlarga mos kelishni **“Sotuvchi”** dan talab qilish;

“Sotuvchi” dan ushbu shartnomada ko`rsatilgan mahsulotni buyurtmaga asosan o`z vaqtida ushbu shartnomada ko`rsatilgan manzilgohda topshirishni talab qilish;

Zarur sifatga muvofiq bo`lmagan mahsulot yetkazib berilganda **“Sotib oluvchi”** o`z hoxishiga ko`ra **“Sotuvchi”** ga mahsulotni qaytarish;

Zarur sifatidagi mahsulotni **“Sotuvchi”** o`z hisobidan sotib oluvchiga qayta yetkazish

Muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo`lmagan holda sotilgan mahsulotni qabul qilishni rad etish.

“Sotuvchi” dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani talab qilishga xaqlidir.

2.4. “Sotib oluvchi” ning majburiyatlari:

a) **“Sotib oluvchi”** shartnomada ko`rsatilgan mahsulotlarni ko`rsatilgan muddatlarda **“Sotuvchi”** ning omboridan olib ketishni o`z zimmasiga oladi

b) **“Sotib oluvchi”** ushbu shartnomada belgilangan muddat va tartibda mahsulotni umumiy summasini oldindan 30 % miqdorda to`lab beradi va mahsulot berilgandan so`ng 70 % miqdorini to`lab berishni o`z zimmasiga oladi.

3. SHARTNOMANING BAJARILISHI

3.1. Majburiyatlar mazkur shartnoma shartlari va qonun xujjatlari talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak; Agar taraflar o`z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishi ta`minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi;

3.2. Ushbu shartnomada ko`rsatilgan miqdordagi mahsulotni qabul qilish bo`yicha yakuniy xujjatlar tuzilgan sana **“Sotuvchi”** tomonidan shartnoma bo`yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Yakuniy hisob-kitoblarni to`lov xujjatidagi bank muassasasi shtampida ko`rsatilgan sana mahsulotga xaq to`lash bo`yicha **“Sotib oluvchi”** tomonidan majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

3.3. Olinadigan turkumdagi mahsulot uchun tegishli bo`lgan xaq **“Sotuvchi”** ning bank hisob raqamiga kelib tushganidan so`ng, **“Sotuvchi”** tomonidan ushbu shartnoma va shartnoma asosida berilgan buyurtmada ko`rsatilgan miqdordagi mahsulotni **“Sotib oluvchi”** ga tegishli yuk xati asosida yetkazib beradi.

3.4. Shartnomaning 1.2. bandida ko`rsatilgan miqdordagi mahsulot berilgan buyurtmalar asosida yetkazib beriladi.

3.5. Mahsulotni yetkazib berish uchun buyurtma tegishli turkumlarini yetkazib berishning mo`ljallanayotgan sanasidan chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmani chopar orqali qabul qilishda **“Sotuvchi”** ning xodimi **“Sotib oluvchi”** da keladigan nusxaga sanani ko`rsatgan xolda u qabul qilganligi haqida belgi qo`yadi.

“Sotib oluvchi” ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yoxud mahsulotni tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o`zgartirishga xaqlidar, bu xaqda **“Sotuvchi”** ni buyurtmada ko`rsatilgan sana boshlanishidan kamida 5 kun oldin xabardor qiladi.

3.6. **“Sotib oluvchi”** mahsulotni qabul qilishda, uni soni va sifatini, joyida tekshirib ko`rishi shart, mahsulot qabul qilinib yuklashgandan keyin, uning saqlanishiga **“Sotib oluvchi”** ning o`zi javob beradi.

4. MAHSULOT SIFATI.

4.1. **“Sotuvchi”** yetkazib beriladigan mahsulotni sifati GOST, TSh talablariga javob berishini ta`minlaydi, mahsulotni tegishli sifat sertifikatlari bilan yetkazib beradi.

4.2. Mahsulotni sotib olgandan so`ng uning sifati bo`yicha javobgarlik **sotib oluvchi** zimmasiga o`tadi.

5. MAHSULOT BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

5.1. Mahsulot uchun xisob-kitoblar pul o`tkazish yo`li bilan amalga oshiriladi.

5.2. Mahsulot yetkazib berishga tayyor bo`lganligi to`g`risida **“Sotuvchi”** . **“Sotib oluvchi”** ni yozma ravishda xabardor qilgandan so`ng . **“Sotib oluvchi”** beriladigan turkum mahsulot bahosini 30 % miqdorda oldindan xaqini to`lab beradi va mahsulot berilgandan so`ng 70 % miqdorini to`lab berishni o`z zimmasiga oladi.

5.3. Agar berilayotgan mahsulotga (xom ashyo, yordamchi materiallar, elektr energiya, gaz va xokazo) ketadigan sarf xarajatlar narxi o`zgartirilgan holda, ushbu mahsulotning narxi o`zgartirilishi mumkin.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Mahsulot berish muddatlari kechiktirib yuborilganligi, to`liq yetkazib berilmaganligi uchun **“Sotuvchi”** **“Sotib oluvchi”** ga kechiktirilgan xar bir majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to`laydi, bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan mahsulot summasining 50 % dan oshmasligi lozim.

6.2. Mahsulot sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo`lmagan mahsulot berganligi uchun **“Sotuvchi”** **“Sotib oluvchi”** ga ushbu mahsulot bahosining 5 % miqdorida jarima to`laydi.

6.3. But bo`lmagan mahsulot yetkazib berilganligi uchun **“Sotuvchi”** **“Sotib oluvchi”** ga yetishmayotgan qismlar qiymatini qushgan xolda, but bo`lmagan mahsulot qiymatining 5 % miqdorida jarima to`laydi.

6.4. Berilgan mahsulotni tanlab olmaganligi yoki tanlab olishni asossiz rad etganligi uchun **“Sotib oluvchi”** **“Sotuvchi”** ga tanlab olinmagan yoki muddatida olinmagan mahsulot bahosining 5% miqdorida, tez buziladigan mahsulot uchun esa 10 % miqdorida jarima to`laydi.

6.5. Shartnomada ko'rsatilgan mahsulot uchun o'z vaqtida xisob-kitobni amalga oshirmaganlik uchun "Sotib oluvchi" "Sotuvchi" ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun keltirilgan to'lov summasini 0.5 % miqdorida penya to'laydi, bunda penya summasini kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lmasligi kerak.

7. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIK DAN OZOD ETISH.

7.1. Taraflardan biri shartnomani yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, kurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar va hokazo) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarilganligini (fors-major holatini) isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu shartnomani bajarilishi yuzasidan kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal etiladi.

8.2. Taraflar o'zaro kelisholmagan nizolar iqtisodiy sudi tomonidan hal qilinadi.

9. SHARTNOMANI BOSHQA SHARTLARI.

9.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, shartnomaning muddati 2022 yil 31 dekabr gacha to'la ijro etilgunga qadar amalda bo'ladi.

9.2. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda kiritiladi va har ikkala tarafning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanada.

9.3. Shartnoma bir hil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan.

10. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

"SOTUVCHI"

"Chimyon Baraka Savdo Servis" MChJ

Farg'ona tumani Parvoz Farovon turmush ko'chasi, № 1-uy

X/r: 2020 8000 0048 2265 0001


MFO: 01155 INN: 301442271

Hankorbank ATB Farg'ona mintaqaviy fil-i

Indeks: 150414 QQS kodi: 330190005977

e-mail: chimyonsavdo@mail.ru Tel: (90) 274-01-23

Rahbar:  A.P. Axmedov



"HARIDOR"



Rahbar:  Z. Zayniddinova



"Chimyon Baraka Savdo Servis" MChJ va

o'rtasida tuzilayotgan shartnoma loyihasi yuzasidan. Men ushbu shartnoma loyihasini amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik sub'ektlarining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi Qonunning 22-moddasiga asosan shartnomani o'rganib chiqib quyidagi xulosamni beraman.

XULOSA

Shartnoma loyixasida oldi-sotdi shartlari, taraflar majburiyatlari va javobgarligi, shartnoma muddati, shartnoma shartini buzganlik uchun javobgarlik, nizolarni hal etish tartibi, shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shartnomani bekor qilish tartibi to'liq ko'rsatilgan. Mazkur

shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga javob beradi.

Huquqshunos: 

« 20 » 06 2022 yil.